

BOSHLANGICH TALIM VA SPORT TARBIYA ISHI

Samarqand viloyati Urgut tumani 102 -maktab

Norimova Nargiza Asad qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limgan umumiy o'rta ta'larning dastlabki bosqichi. Jismoniy va aqliy tarbiya o'rtasidagi ajralmas bog'liqlik, jismoniy madaniyat insonning jismoniy tabiatiga ta'sir ko'rsatib, uning hayotiyligi va umumiyligi qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi, sport tarbiya ishi esa sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiyligi tarbiyaning uzviy bog'liqligi hamda sport tarbiya ishi aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib borilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'limgan, xatsavod, malaka va ko'nigmalar, jismoniy mashqlar, turli o'yinlar, mehnat jarayonlari, sport tashkiloti, jismoniy tarbiyaning ilmiy-amaliy asoslari, davlat ta'limi standartlari, ommaviy musobaqalar.

Annotation: This article discusses the inextricable link between primary education and general secondary education. It provides information on the inseparable connection between physical and mental education, the fact that physical culture affects the physical nature of a person, helps to develop his vitality and general abilities, and that sports education is an integral part of general education aimed at strengthening health and harmonious development of the human body, and that sports education is carried out in conjunction with mental, moral, labor and aesthetic education.

Key words: primary education, kindergarten, skills and abilities, physical exercises, various games, labor processes, sports organization, scientific and practical foundations of physical education, state education standards, mass competitions.

Аннотация: В данной статье начальное образование является начальной стадией общего среднего образования. Приведены сведения о неразрывной связи физического и умственного воспитания, о том, как физическая культура влияет на физическую природу человека и способствует развитию его жизненных сил и общих способностей, о том, что спортивное воспитание является неотъемлемой

частью общего образования, направленного на укрепление здоровья и гармоничное развитие организма человека, и о том, как спортивное воспитание осуществляется во взаимосвязи с умственным, нравственным, трудовым и эстетическим воспитанием.

Ключевые слова: начальное образование, детский сад, умения и навыки, физические упражнения, разнообразные игры, трудовые процессы, организация спорта, научно-практические основы физического воспитания, государственные образовательные стандарты, массовые соревнования.

Kirish. Boshlang'ich ta'larning asosiy maqsadi bolalarga asosiy bilim va ko'nikmalarni egallashda yordam berishdir. Bu davrda sport tarbiyasi juda muhim rol o'yinaydi. Sport, nafaqat jismoniy rivojlanishni ta'minlaydi, balki bolalarning psixologik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Sport tarbiyasi orqali bolalar jamoada ishlashni, musobaqalarga qatnashishni va yutuqlarga erishishni o'rganadilar. Bu tajribalar ular hayotida muvaffaqiyatli inson bo'lishlariga xizmat qiladi. Sportning turli turlari orqali bolalar o'zlariga ishonch hosil qiladilar, sog'lom raqobat muhitida faol ishtirok etadilar va o'z salomatliklariga e'tibor berishni o'rganadilar. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyasi bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir.

Mavzuga oid adabiyotlar. Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyasi bo'yicha adabiyotlar: Frolova, T. "Boshlang'ich ta'larning asoslari" - Bu kitobda boshlang'ich ta'lim jarayonida sport tarbiyasining ahamiyati yoritiladi. Pirogova, E. "Bolalar va sport: nazariya va amaliyot" - Mazkur asar bolalarning sport faoliyati orqali rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. Mustaqimov, X. "Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari" - Jismoniy tarbiya va sportni o'rganish, o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Karimova, D. "Sport tarbiyasining psixologiyasi" - Sport tarbiyasining psixologik jihatlari va uning bolalar rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Anvarov, R. "O'yin va sport: bolalar ta'limida ahamiyati" - O'yin va sportni boshlang'ich ta'limda qanday qo'llash mumkinligi haqida fikrlar berilgan. Ushbu adabiyotlar bolalar ta'limi va sport tarbiyasi o'rtaсидаги muhim aloqalarni o'rganishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich ta’lim – umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichi. O‘zbekiston Respublikasida Boshlang‘ich ta’lim 1—4-sinflarda bolalarga ilk ta’lim berish, ularni ma’naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1—4-sinflarni o‘z ichiga oladi va o‘qish 6—7 yoshdan boshlanadi. Bunda ta’lim mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonunida Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga karatilgan.¹ Boshlang‘ich ta’lim sinflari uchun o‘quv rejasi va dasturlari mavjud. Boshlang‘ich ta’limda o‘quv rejasi asosida ona tili, matematika, tibbiyot, tarix (tarixiy mavzulardagi matnlar asosida), rus tili, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ona tili darsida xatsavod o‘rgatiladi, nutqni o‘sirish, o‘qish va yozishga o‘rgatish yuzasidan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, dastur asosida imlo qoidalari va ba’zi grammatik vositalar to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlar beriladi. Matematika darsida 4 arifmetik amal ichida hisoblash (qo‘sish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish) o‘rgatiladi, algebra va geometriyaga oid ilk tushunchalar bilan tanishtiriladi. Boshlang‘ich ta’limda maktab dasturida belgilangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘rgatish hamda hosil qilishga erishish uchun ta’limning turli usullari, shakllari hamda vositalaridan foydalanish asosida ish olib borish talab qilinadi. Boshlang‘ich maktab — bolalarga boshlang‘ich umumiy ma’lumot beradigan umumta’lim o‘quvtarbiya muassasasi. Uning vazifasi o‘quvchilarda yozish, o‘qish, hisoblash malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish, tabiat va jamiyat haqida ilk bilimlar berish, xulqodobga o‘rgatishdir. Hozirgi O‘zbekiston hududida dastlabki Boshlang‘ich maktab — maktabxonalar arab xalifaligi tomonidan O‘rta Osiyo yerlari bosib olingandan keyin (7-asr) mahalliy xalq va ularning bolalarini musulmon ruhida tarbiyalash maqsadida ochilgan. 1869-yil Toshkentda dastlabki rus boshlang‘ich maktabi ochildi. Turkistonda mahalliy aholi bolalari uchun 19-asr oxirlarida ochilgan rustuzem maktabi ham Boshlang‘ich maktab dir. 1900-yildan O‘zbekiston hududida "jadid maktabi" nomi bilan yuritilgan yangi usul maktablari ham

¹ 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonun

ish boshlagan. Bu maktablar Turkiston mahalliy xalqlar milliy maktablarining kurtaklari bo‘lgan. Abdulla Avloniy "Usuli jadid" maktablari uchun to‘rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she’rlar" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), " Ikkinci muallim" (1915), " Maktab gulistoni" ²(1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Avloniyning "Birinchi muallim"³i ham o‘ziga xos o‘ringa ega; "Birinchi muallim" 1917 yil to‘ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi). Yangi usul maktablari ham asosan 1—4 sinfdan iborat Boshlang‘ich mакtab hisoblangan. 1917-yil oktabr to‘ntarishidan keyin, 1918-yil 13 dekabrda Shu yillardan boshlab Boshlang‘ich maktabning mavqeい va ahamiyati tubdan o‘zgardi; umumiylar ta’limning mustaqil, tugal bosqichi degan xususiyatini yo‘qotib, fan asoslarini izchil o‘rganishga tayyorlanish bosqichi bo‘lib qoldi. 1991-1992 o‘quv yilidan O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich maktablarda yana 4 yillik boshlang‘ich ta’limga o‘tildi. "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun (1997-yil 29 avgust)da boshlang‘ich mакtab ta’limining yangi mazmuni belgilandi.

Sport (ing. sport — o‘yin) — jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarni turli majmualari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o‘tkazish tizimi. “Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat” va “Sport faoliyati” (faoliyat turlari bo‘yicha) malakasini oshirish yo‘nalishlarida pedagog kadrlarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish; intensiv skaut platformalaridagi professional statistika bazalari ma'lumotlaridan foydalanishni o‘rgatish; jismoniy tarbiya va sport fanlarini o‘qitishda ta’lim jarayoniga forsayt texnologiyalarini samarali qo‘llash; jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha o‘qitishning innovation texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish; sport sohasini rivojlantirishning istiqbolli

²“ Abdulla Avloniy Ijodida Yetakchi O‘rin Egallagan Ta’limiy Axloqiy Hamda Pedagogik Qarashlar”Ergasheva Marjona Qobilovna Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti , tillar fakulteti , o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

³ Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim"

dasturlarini ishlab chiqish; ilmiy tadqiqot ishlarida jismoniy tarbiya va sportda matematik-statistik uslublardan foydalanish hamda tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish. "Jismoniy madaniyat nazariyasining asoslari" moduli mazmuni o'quv rejadagi "Sportchilarni tayyorlashning zamonaviy texnologiyalari", "Bolalar va o'smirlar sportining dolzarb muammolari", "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" va "Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish"⁴ o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi. Jismoniy kamolot – bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlik va garmonik jismoniy rivojlangan, mehnat va boshqa sohalardagi talablarga javob bera oladgan individual talantining yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi, shaxsni har tomonlama rivojlanish va uzoq yillar sog'ligini mustahkamlash qonuni bilan murosada bo'ladi. Sport harakati - ijtimoiy harakatning maxsus shakli bo'lib, tuzish, rivojlanish, saqlash, sport boyliklarini qabul qilish va almashish, shaxsni tashkil topishi uslubi, jamiyatga ishchi kuchi xamda, Vatanni faol himoyachilarini tayyorlaydi. O'zbekistonda sport harakati - g'oyaviy kurashning kerakli sohasi bo'lib, ommaga ta'sir ko'rsatuvchi, insonda milliy ongni tarbiyalovchi tomonlaridan biridir. Sport harakati tarixan quyi-dagi shakl-larni: ommaviy, havaskorlik sportini yaratgan. Bundan tashqari biznes shaklidagi - professional sportni yuzaga chiqaradi. Sport faoliyati - harakat faoliyati rivojlanishini oliy shakli bo'lib, inson faoliyati jarayonining ko'p qirraliligi insonni jismoniy va psixologik rivoj-lanishi hamda takomillashuvini jamiyatning talabiga nisbatan tashkil qilishdir. Sport faoliyati: shaxsiy sport faoliyati va tashkiliy - pedagogik faoliyatlarga bo'linadi. Insonning sport faoliyati ikki bir-biriga bog'liq: qayta tashkil topish va tushunib yetish (sportchini bilishi, ko'nikma, malakalarni yuqori sport ko'rsatkichlari) tomoni mavjud. Boshlang'ich ta'lim muhimligi

Boshlang'ich ta'lim hayotiy asoslarni shakllantiradi. Bu davrda bolalar o'zlarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirib, ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar. Ta'lim muhitida olingan tajribalar bolalarning hayotlarida katta rol o'ynaydi. Asosiy bilimlar:

⁴ Jismoniy madaniyat va uning bolalar va o'smirlarga ta'siri

O'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalari shakllanadi. Ijtimoiy ko'nikmalar: Bolalar bir-biriga yordam berishni, hamkorlikni o'rganadilar. Shaxsiy rivojlanish: O'z-o'zini anglash, qobiliyatlarni kashf etish imkoniyati yaratiladi. Sport qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy tayyorgarlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash uchun muhimdir. Boshlang'ich ta'limda sport faoliyati bolalarning jismoniy va psixologik rivojlanishini ta'minlaydi, ularni jamoada ishlashga, raqobatga tayyorlaydi. Sport va ta'lim bir-birini to'ldiradi, bolalarga muvaffaqiyat va qiziqishni oshiradi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyasi bo'yicha tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda sport tarbiyasi bolalarning jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra: Jismoniy rivojlanish - Sport faoliyatları bolalarning muskullarini mustahkamlash, moslashuvchanlik va tezlikni oshirishga yordam beradi. Jismoniy shug'ullanish orqali bolalarning sog'ligi yaxshilanadi. Emotsional rivojlanish - Sportda muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik hissiyotlarini boshqarish bolalar o'rtasida o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu, o'z navbatida, stressni kamaytiradi. Ijtimoiy ko'nikmalar - Sport tarbiyasi bolalarda jamoaviy ish olib borish, raqobat va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu shartlar ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi va bolalarning o'zaro hurmatini oshiradi. Kognitiv rivojlanish - Sport faoliyatları bolalarning diqqatini jamlash, strategik o'ylash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini kuchaytiradi. Ushbu tahlillar davomida sport tarbiyasining boshlang'ich ta'lim jarayonida ahamiyati to'liq oydinlashadi va bolalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyasi bolalar rivojlanishida ajralmas bo'lib, ularning jismoniy, emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Sport faoliyatları orqali bolalar sog'lom turmush tarzi bilan tanishadilar va o'zaro munosabatlarni yaxshilaydilar. Sport dasturlarini kengaytirish - Maktablarda sport turlari ko'paytirilib, bolalarga turli xil faoliyatlardan foydalanish imkoniyatini berish zarur. O'qituvchilarning malakasini oshirish - Sport tarbiyasi bo'yicha o'qituvchilarni muntazam ravishda seminarlar va treninglar orqali

malakalarini oshirish. Sog'lom raqobat muhitini yaratish - Sport mashg'ulotlarida sog'lom raqobatni rag'batlantirish bolalarda ijobjiy munosabatlarni rivojlantiradi. Ota-onalar bilan hamkorlik - Ota-onalar bilan sportga oid tadbirlar o'tkazish va ularni bolalar faoliyatlariga jalb qilish. Ushbu takliflar boshlang'ich ta'limda sport tarbiyasini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Boshqurtov, N. (2020). Boshlang'ich ta'limda sport tarbiyasi. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Abdullaeva, M. (2019). Bolalar sporti va faoliyatları. Tashkent: Yoshlar Nishoni.
3. Qodirov, S. (2021). Sport va jismoniy tarbiya. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
4. Xolova, D. (2018). Ta'lim va sport: Muammolar va yechimlar. Tashkent: Fan va texnologiyalar.
5. Karimov, R. (2022). Boshlang'ich ta'limda sport mashg'ulotlari. Journal of Education and Sport, 15(3), 45-58.
6. Ergashev, A. (2021). Sportda raqobat va rivojlanish. Tashkent: O'zbekiston Sport Akademiyasi.
7. Ismoilov, J. (2020). Ota-onalar uchun sport tarbiyasi qo'llanmasi. Tashkent: O'qituvchi.